

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:29 (67194)  
2018-yil 16-iyul

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

ISSN - 2010-6092



## TO'RAQO'RG'ONNING JAJJI «NIHOL»LARI

Yurtimiz yoshlarining iste'dod-u salohiyatlari, erishayotgan yutuqlari haqida ko'p yozamiz. Bugungi kunda hatto jajji bolajonlarimiz ham bog'cha yoshidanoq turli tanlov va musobaqalarda qatnashib, o'z iqtidorlarini namoyish etishayotgani qalbmizni faxrga to'ldiradi.

Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumanidagi «Nihol» nomli 44-maktabgacha ta'lim muassasasining katta guruh tarbiyalanuvchilari Dildora Isoqjonova va Boburjon Yoqubjonov shashka bo'yicha tumanda o'tkazilgan musobaqada tengdoshlaridan o'zib ketishibdi. Chunki ular yaqindagina bog'chalarida o'tkazilgan «Sog'lomjon - polvonjon» sport musobaqasida anchagina mashq qilib olishgan ekan-da!

(Davomi 3-bet da)



USHBU SONDA:

**XALQARO  
MATEMATIKA  
MUSOBAQASIDAN  
5 TA MEDAL**

2-bet

**AVTOBUSDA  
«UXLAB»  
QOLMANG!**

3-bet

**TEMURBEKLAR  
MAKTABI**

6-bet

O'qishda, mehnatda, fanda, xalqqa  
astoydil xizmat qilishda o'z baxtingni  
topasan.

Tong  
yulduzi

# XALQARO MATEMATIKA MUSOBAQASIDAN 5 TA MEDAL

Har yili  
iyul oyida maktab  
o'quvchilari o'rtasi-  
da o'tkaziladigan

**Xalqaro matematika musobaqasida ishtirok etish har bir mam-lakatning iqtidorli o'quvchisi uchun sharaftir.**

Mazkur musobaqada dunyoning 30 ga yaqin mam-lakatidan kelgan 600 nafardan ortiq ishtirokchilar qatori o'zbekistonlik o'quvchilarga ham beshinchi bor nasib etgan bu sharaflar va ishonchini tengdoshlaringiz munosib tarzda oqlashdi. Bolgariyaning Burgas shahrida bo'lib o'tgan bu yilgi musobaqada yosh matematiklarimiz ilk marotaba umumjamoa hisobida eng ko'p medalni qo'lga kiritishdi.

Xalqaro matematika musobaqasida g'olib bo'lgan o'zbekistonlik o'quvchilarning taassurotlari sizni ham qiziqtirishi tayin. Axir Bolgariya davlati va xorijlik tengdoshlar bilan tanishuvning o'z gashti, qolaversa, fanlar shohi bo'lmish matematik amallarni a'lo darajada bajarishning o'z sirlari bo'lsa kerak.

**Doniyor ISMOILOV, Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-DIUMning 8-sinf o'quvchisi, oltin medal sohibi:**



— Men ushbu xalqaro musobaqada o'tgan yili ham ishtirok etib, oltin medalni qo'lga kiritgan edim. O'shanda Hindistonga borish nasib etgan bo'lsa, mana bu yil Bolgariyada bo'lib qaytdim. U yerdagi tarixiy obidalar bilan tanishib, xorijlik tengdoshlarim bilan suhbatlashdim. Ilmli inson dunyo kezadi, deyishgani rost ekan. Shu bois, menga matematika fanini chuqur o'rgatgan ustozlarim va bizga doim katta e'tibor qaratadigan maktabimiz rahbari Temur aka Ro'ziyevdan bir umr minnatdorman. Bugungacha mazkur musobaqada bir nechta medallarni qo'lga kiritib, ustozlar ishonchini oqlayotganimdan xursandman.

**Muhammadrizo MAJIDOV, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi, bronza medali sohibi:**

— Matematika olamiga kirib kelishimga ustozim Durdon opa Sharipova va Rahmatilla aka Karimov sababchi bo'lishgan. 6-sinfda o'qiyotganimga, «Al-Xorazmiy izdoshlarimiz» musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etganimga, bu fanni chuqur o'rgana olishimga ishon-dim. Matematikadan har yili xalqaro olimpiada ham bo'lishini bilganimga esa oldimga katta maqsad qo'ydim. Bundan oldin musiqa bo'yicha ham Sochida bo'lib o'tgan «Chernomorskiy Olimp» festivalida, Italiyada o'tkazilgan «Hello, Italul!» tanlovlarida g'olib bo'lgan edim. Lekin sevgan fanim bo'yicha xorijlik tengdoshlarim bilan bel-lashish ishtiyoqi meni izlanishga, tinmay mehnat qilishga chorladi. Hatto ustozim bilan Buxoroning Qorako'lidagi o'sha chempionlar maktabiga

borishni ham rejalagandik. Keyin bilsak, o'sha maktabning sobiq o'quvchisi, mazkur musobaqada ilk bor g'oliblikka erishgan Umid aka Rahmonov poytaxtdagi o'quv dargohlaridan birida dars berar ekan. Shunday qilib, men ustozlar ko'magida puxta hozirlik ko'ra boshladim.

O'sha kun nasib qilib Bolgariyada bo'lganimga esa juda baxtiyor edim. Jamoamizga boshchilik qilgan Shuhrat aka Ismoilov matematikaga oid o'qigan kitoblarning muallifi ekanliklariga ishongim kelmasdi. Ayniqsa, Burgas shahrida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan milliy mashinalarimizni ko'rga-nimda, yurtimiz bayrog'i ko'tarilganida bolgariyalik tengdoshlarimning olqishlarini eshitganimga, rosa hayajonlandim. Yurtimizga qaytganimga esa bizga shart-sharoitlar yaratayotgan Yurtboshim, ota-onam va ustozlarimga barchasi uchun katta rahmat aytdim.

Shuningdek, Buxoro viloyati, Qorako'l tuma-nidagi 1-DIUMning 7-sinf o'quvchisi Lazizbek Ra-jabboyev va Peshko' tumanidagi 18-umum-ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Jahongir Nor-boyevlar kumush medal sohibi bo'lishdi. Termiz shahridagi 4-ixtisoslashtiril-gan maktab-internatining 7-sinf o'quvchisi Iskandar Bo'riyevga bronza medali nasib etdi.

**Aziz o'quvchimi! Shun-day iqtidorli va itiluv-CHAN tengdoshlaring-izning taassurotlari, katta orzu va maqsadlari sizni ham ruhlantirib yuborgan bo'lsa, ajab emas. Zero, ular ha-qida yozishdan maqsadimiz ham, niyatimiz ham shu.**

**Sayyora QODIROVA**

X. HASANOVA olgan surat



## O'RIKLISYOY ILHOMLARI

**Zominda bo'lib o'tgan respublika yosh ijodkorlarining navbatdagi an'anaviy seminari ko'plab iste'dodlarni kashf etdi, desak, yangilishmaymiz. Nazm, nasr, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid va tarjima yo'nalishlari bo'yicha ijod maydonida o'zlarini sinab ko'rgan yoshlarni unisi «zo'r», buni «kuchli» demoqchi emasmiz. Chunki ular orasida zo'rlar ham, kuchlilar ham ko'p edi. Seminarda ijod va iste'dod g'alaba qildi.**

Bolalar adabiyoti bo'yicha Mohira Anorboyeva (Jizzax), Jasmina Rashidova (Jizzax), Dinora Begdullayeva (Qoraqalpog'iston), Zuhra Yo'ldiyeva (Jizzax), Zulfizar Mavlonova (Buxoro), Ra'no Abduvoitova (Jizzax), Madina Xolboyeva (Sirdaryo), Xumora Hayitboyeva (Jizzax) qatnashdilar.

Ularning ijod namunalari O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon, tanikli bolalar shoiri Dilshod Rajab, Orif To'xtash va kamina baholadik. Muhokamalar qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'ldi.

Seminar o'tayotgan kunlari erkin mavzularda ham yoshlarning iqtidorini sinab ko'rdik. Chorpayada bo'layotgan muhokama jarayonida shundoq qaragam, chiroyli va yangi oyoq kiyimlari qatorida kaminaning

tufli sirozi eskirgandek ko'rindi. Bolalarga shu mavzuni tavsiya qildim. Oradan o'n-o'n besh daqiqa o'tar-o'tmasdan Jizzax akademik litseyi 2-bosqich o'quvchisi Zuhra Yo'ldiyevaning yozgan ushbu she'ri ko'pchilikka manzur bo'ldi.

**Ustoz dedi: — Mung'ayib Turar qarang, boshmog'im. Eskirishiga sabab — Har manzilga shoshmog'im. — Yo'q-yo'q, ustoz, yangidan Bizga eskisi afzal. Har manzilning hikmatin, Ko'rgan-ku shu poyabzal, Bu kun she'rga aylanar. Qadamlarning jarangi, Ijod o'zi bir olam, Ertaknamo qarangki.**

**Istagim: shu — davrada, Hammamizga es kirsar. Qani bizning boshmoq ham, Sizinikiday eskirsar.**


Zuhraning bu she'ri seminar yakuni-ga bag'ishlangan tantanada ham o'qildi. Unga barcha seminar qat-nashchilari bilan birga, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekis-

ton xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ham yaxshi baho berdi. Seminar chinakam ijod musobaqasiga aylandi. Zominda yangragan har bir ijod namunasida ertangi adabiyotimizning kuch-qudrati namoyon bo'lib turibdi. O'rikliyo mi-sol to'lib-toshib adabiyot ummoniga oqib kelayotgan yosh iste'dodlarning qadamlari qutlug' bo'lsin!

**Ashurali JO'RAYEV, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashi raisi**



(Davomi.  
Boshi  
1-betda)



Ularning yutuqlari-  
dan esa Muqaddas  
Qosimova, Muyassar  
Nazarova, Xurshida  
Mansurova kabi tar-  
biyachi opalari juda  
quvonishdi. Mazkur  
muassasada qirq yetti  
yildan buyon faoliyat  
yuritib kelayotgan fidoyi  
rahbar Shoira opa Ra-  
sulova esa kichkin-  
toylarga oid hech bir  
masalani e'tibordan  
qoldirmaslikka harakat  
qiladi. Jumladan, ayni

## TO'RAQO'RG'ONNING JAJJI «NIHOL»LARI

kunlarda bog'chada tarbiyalanuvchilarni sog'lomlashtirishga  
katta e'tibor berilmoqda. Bog'cha hamshirasi Dilnoza Umarova  
bolalarda uchraydigan yassioyoqlikning oldini olish maqsa-  
dida maxsus yo'lakchalarda turli mashqlar o'tkazayotgan  
ekan. Qo'li shirin oshpaz Munavvar opa Mannonova esa  
bog'cha hovlisidan terilgan turli ho'l mevalardan bolajonlar  
uchun vitaminlarga boy sharbat va boshqa shirin taomlarni  
tayyorlashdan charchamaydi. Zero, jajji nihollarning azim  
chinorlarga aylanishlari uchun ana shunday g'amxo'rlik zarur.

Shuningdek, ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun  
«Musika» to'garagi faoliyat yuritib, har hafta bog'cha opalar  
tomonidan «Qo'g'irchoq teatri» namoyish etilmoqda. Shun-  
day ekan, jonkuyar rahbar Shoira opa Rasulova rejalaga-  
nidek, keyingi yillarda mazkur muassasa yanada zamonaviy  
ko'rinishga ega bo'lib, uning chiroyli va baquvvat nihollari  
ko'payaverishini istab qolamiz.

SAYYORA

## ULARDEK USTOZ BO'LSAM...



Assalomu alaykum, sevimli gazetam tahririyati xodimlari!  
Men kabi chekka qishloqdagi o'quvchilarning maqola-  
larini gazeta sahifalarida chop etayotganingizdan behad  
xursandman. Bu safar sizlarga mening qo'limga ilk bor  
ruchka tutqazib, yozishni, ona, Vatan kabi so'zlarni o'qish-  
ni o'rgatgan, onamdek mehribon ustozim Sanobar opa  
Quryozova haqida yozmoqdaman. Ular bizni o'z farzand-  
laridek ko'radi. Hayotimiz bog'boni bo'lgan ustozim bizni  
xuddi nihol kabi parvarishlab, yaxshi bilim egallashimiz  
uchun tinmay mehnat qiladi. Bundan tashqari, ular bizni  
sog'lig'imiz, kelajagimiz haqida o'ylab, doim sog'lom tur-  
mush tarziga rioya qilishimizni tayinlaydi.

Bizning yutuqlarimizdan quvonib, yuksak  
marralarni egallashimiz uchun qanot beradi.

Men ulardek ustoz bo'lsam, deya orzu  
qilaman.

Ozoda XOJIBOYEVA,  
Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi  
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi



# GULPARSHIN YAPONIYAGA BORDI

**Bolajonlar, agar yodingizda bo'lsa, o'tgan sonlarimizda Qoraqalpog'iston  
Respublikasi, Nukus shahridagi Ibroym Yusupov nomidagi davlat  
ixtisoslashtirilgan maktab-internatida yaratilgan sharoitlar, o'quvchilarning  
yutuqlari haqida xabar bergan edik. Kuni kecha ushbu maktab-internatidan  
yana yangi mujda keldi.**

Ta'lim maskanining 9-sinfini  
bitirib, 10-sinfga o'tgan Gulparshin  
Joldasbayeva Yaponiyaga borib,  
u yerda bo'lib o'tgan «Sakura»  
ilmiy anjumanida Qoraqalpog'is-  
ton yoshlari nomidan qatnashdi.

– Gulparshin dastlab Qoraqal-  
pog'istonning Qonliko'l tumanidagi  
4-umumta'lim maktabida tahsil  
olib, so'ngra Ibroym Yusupov  
nomidagi davlat ixtisoslashtiril-  
gan maktab-internatiga o'qishga  
qabul qilingan, – deydi mak-  
tab-internatining ma'naviy va  
ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor  
o'rinbosari Jaqsiliq Biyimbetov.

– U chet tillarini o'rganishga  
qiziqqanligi bois, shu kunga  
qadar ko'plab tanlovlarda qatnashib,  
g'olib bo'ldi. Jumladan, o'tgan yillarda  
«Qobiliyati  
qizlar» ko'rik-tanlovida ingliz tilidagi  
qo'shig'i uchun 1-o'ringa, «Jetkinshek»  
gazetasi tomonidan e'lon qilingan  
tanlovda «Yilning eng yaxshi ingliz  
tilidagi qo'shig'i» nominat-  
siyasi g'olibi, 2017-yilda «Ingliz tili  
bilimdonlari» tanlovida 1-o'ringa  
munosib topilgan.

Gulparshin bu bilan chegaralanib  
qolmay, o'z ustida izlanib, yanada  
yangi marralarni zabt eta oldi. Jumladan,  
maktab-internatda tashkillashtirilgan  
«Ayaziy izdoshlari» tanlovida 1-o'rinni  
egalladi. Iste'dodli qizning «My  
motherland», «Karakalpakistan»,  
«Sumalak», «Soliders», «Ayaziy's  
followers», «Why are the donkey's  
ears large?» nomli ingliz tilidagi  
maqolalari respublika gazetalari-  
da chop etildi.

O'qib-izlanishlar o'z samarasini  
berib, Gulparshin Joldasbayeva  
yaponiyalik tengdoshlarining ham  
hurmatiga sazovor bo'ldi. «Bu yutug'im  
nafaqat meniki, balki menga bilim  
berayotgan ustozlarimning ham  
muvaffaqiyatidir», deydi Gulparshin.

Biz iste'dodli qizga doim omad  
yor bo'lishini, kelgusida yanada  
katta yutuqlarga erishishini tilaymiz.



Ozoda TURSUNBOYEVA

## AVTOBUSDA «UXLAB» QOLMANG!

Inson bolasini zamona parvarish qiladi,  
kimda kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida.  
ABAY



Avtobus bekatda to'xtadi.  
Yoshi oltmishdan oshgan ayol  
qo'lidagi og'ir yuki bilan amallab  
avtobusga chiqdi. Uning ketidan  
chiqqan nuroniy otaxon ham  
bu gal manziliga tik oyoqda  
boradigan ko'rinadi. Chunki  
o'rindiqlarni egallagan yosh-  
larning biri ataylab ko'zini  
yumib olgan bo'lsa, ba'zilar  
qulog'iga quloqchin taqib,  
go'yo bu olamni unutgandek  
edi. Bunday holatni kuzatar  
ekansiz, vijdoni ham mudroq  
tengdoshlarimizga bir so'z  
degingiz keladi. Men ularga aytmo-  
qchi bo'lganimni qog'ozga tushirishni

o'ylab yurganim- da, bir kuni qo'shni buvi ham hasrat qildi. Ma'lum bo'lishicha,  
ularning biroz toblari yo'qligi bois, shifokor huzuriga yo'l olibdi. Aksiga olib, avtobusda  
hech kim joy bermabdi. Shunda bir o'qituvchi ayol yosh qizni biroz koyiganida esa  
buvijon rosa xijolat bo'libdi.

Axir o'sha yoshi ulug' insonlar bizning ota-onamiz yoki buva-yu buvimiz bo'lishi ham  
mumkin-ku! Bugun befarqlimiz ertaga o'zimizga qimmatga tushishiga yo'l qo'ymaylik.  
Zero, keksalar duosi ijobat. Hozir biz qilayotgan ezgu amallarimiz kelajak hayotimizni  
belgilab berishini aslo unutmaylik.

Mardona ZOKIROVA,

Angren axborot texnologiyalari va sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Baxsh etar ilhomlar,  
Yoz kelib – yoz kelib.  
Dil olgay oromlar,  
Yoz kelib – yoz kelib.  
Po'lat MO'MIN

Tong  
yulduzi

## «KAMALAK»NING NURLI JILOSİ

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 234-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Kamalak» yozgi sport-sog'lomlashtirish oromgohida 150 dan ziyod o'quvchilar miriqib hordiq chiqarmoqda.

Nasiba Nazarova, Vasila Saidova, Malika Aripjonova, Shohista Zuhurova, Nazira Nasriddinova, Dilrabo Abdurasulova kabi pedagog-tarbiyachilar bolalarning har bir kuni esda qolarli bo'lishi uchun harakat qilmoqda.

Kuni kecha bu yerda bolalar shoiri Shukurullo Abdullayev bilan ijodiy uchrashuv adabiyot bayramiga aylanib ketdi. O'quvchilar ijodkorning yangi ijod namunalaridan bahramand bo'lish



bilan bir qatorda, adabiyotning sehirli olamiga oid o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga ham javob oldilar. Tumanidagi 6-aholi dam olish madaniyat uyi qoshidagi «Hilola» raqs dastasi a'zolari ham tadbirida ishtirok etib, tomoshabinlar e'tiboriga sazovor bo'ldi. Bastakor Nigora Xolxo'jayeva va Jamila Hamidovaning shogirdlari o'zlarining go'zal raqslari bilan anjumanga o'zgacha zavq bag'ishlashdi.

Yusuf ABDULLAYEV

## KUTILMAGAN SOVG'A

Ta'tilda mahallamizdagi ba'zi bolalar Bo'stonliqdagi oromgohda mazmunli hordiq chiqarayotgan bo'lsa, ba'zilari rejalashtirgan mashg'ulotlari bilan shug'ullanmoqda. Masalan, Abdulaziz kompyuter kursiga qatnab, elektron dasturlar yaratmoqda. Aka-uka Shohruh va Shahzodlar ingliz tili to'garagiga qatnab, chet tilini mukammal o'rganmoqda. Dilshod esa suzishga, shaxmatga qatnayapti. Muhammadjon mashg'ulotlarda dzyudo musobaqalariga tayyorgarlik ko'ryapti.

Qizlarimiz Risolat raqs va badiiy gimnastika mashg'ulotlariga oshno bo'lgan. Mavludaning mahorati esa «Mohir qo'l-lar»da yanada toblanmoqda. Bolalar har hafta bittadan badiiy kitob o'qib, bir-birlariga so'zlab berishadi. Farzandlarining ta'tilni bilim olib, zavqli o'tkazayotganidan ota-onalar ham xursand.

Ha, aytganday, ota-onalar dilbandlariga sovg'a ham tayyorlab qo'yishgan. Endi bolalar matbuot do'konlaridan o'z nomlariga obuna qilingan «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini bemaol olib o'qishlari mumkin.

Malika ERGASHEVA,  
Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi  
Oqtosh tadbirkorlik va servis kolleji  
bitiruvchisi

## HAR BIR KUN MAZMUNLI

Ayni damlarda yurtimizning turli go'shalarida bolajonlarning yozgi ta'til kunlari maroqli kechishida oromgohlar faoliyat olib bormoqda. Ayniqsa, tog'li hududlardagi dam olish maskanlari yozning issiq kunlarida bolajonlarning sevimli maskaniga aylangan.

Bo'stonliq tumanida joylashgan «Yoshlik» bolalar sog'lomlashtirish oromgohiga borganimizda, kiraverishdagi rang-barang gullar bahri dilimizni ochdi. Oromgoh hovlisini to'ldirgan bolajonlarning sho'x kulgularidan dilimiz yayradi.

– Oromgoh 2008-yilda tashkil topgan bo'lib, bunda 420 tadan ziyod bola dam oladi, – deydi «Yoshlik» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi rahbari Shoali Ahmadjonov. – Har mavsumda bolajonlarga respublikamizda faoliyat yuritayotgan taniqli jurnalist, shoir, aktyorlar bilan uchrashuvlar tashkillashtiramiz. Mana bugun O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Muhammadjon Shokirov, xonanda Gulnoza Karimova bolajonlar bilan birga qo'shiq aytishdi, raqsga tushishdi.

**4-guruhdan Diyorbek Sobirjonov:** – Bu yil 5-sinfga o'tdim. Men bu oromgohga ikkinchi yili dam olgani kelishim. Juda ham yoqadi bu joy. Havosi toza, hammayoq chiroyli. Tarbiyachi opalarimiz mehribon. Oshpaz opalarimiz tayyorlagan ovqatlar bir-biridan mazali...

Atrofimizni qurshab olgan bolajonlar chug'ur-chug'uri tinmaydi. Ularning yuz-ko'zlaridan oromgohda yaratilgan shart-sharoitlardan ko'ngli to'qligini anglaymiz. Shu damda xayolimizni yoshlikning beg'ubor damlari o'ziga chorlaydi. «Yoshlik»da yoshlik sururi tinmaydi...



## «G'UNCHA»NING YOSH SAYYOHLARI

Erta tongdan navbatdagi sayrga o'tlangan o'quvchilar G'o'bdin tog'idagi Naqrash qoyatoshlariga necha-necha asrlar ilgari musavvirlar tomonidan ishlangan oltmishga yaqin jonivorlarning

suratlarini  
tomosha  
qilishdi.

Ularning bugungi kungacha to'la-to'kis saqlanganligidan yosh sayyohlar beixtiyor hayratlanishdi. So'ngra, pedagog-tarbiyachi Ahmad Jo'rabekov o'g'il-qizlarga bu yerning tarixi,



tabiiy xususiyati va jonivorlari haqida hikoya qilib berdi.

G'allaorol tumanidagi 39-umumta'lim maktabi qoshida joylashgan «G'uncha» oromgohidagi dam oluvchilar qalbida har bir o'tgan kun o'ziga xos iz qoldirmoqda.

– So'lim go'shada 80 nafar o'g'il-qizimiz ko'ngilli hordiq chiqarishi, salomatliklarini mustahkamlash uchun belgilangan reja asosida ish olib borilyapti. Tajribali tarbiyachilar Zulfiya Murtozova, Bahodir Bekmatov, sport yo'riqchisi Zohid Nurimov va bosh yetakchi Islom Xidirov kabilar bolajonlarning ko'ngilli hordiq chiqarishi uchun bor bilim va malakalarini ishga solmoqda, – deydi oromgoh rahbari Xudoyberdi Safarov.

Oromgohda bolajonlarning ko'ngilli dam olishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rilganligi shundoqqina ko'zga tashlanadi. Mutasaddi tashkilotlarning sa'y-harakati tufayli yotoqxona mebellari, oshxona va sport jihozlari, dori-darmon, sanitariya va gigiyena vositalari bilan to'la-to'kis ta'minlangan. Ko'chma kutubxona yoshlarbop badiiy asarlari bilan bolajonlarga zavq ulashmoqda.

Abdulla SAIDOV,  
Jizzax viloyati

# MUSOBAQALARGA BOY KUN

- Hozirgina maktabimiz hovlisidan turli xil ho'l mevalarni terish musobaqasini boshlab yubordik. Kim ko'p mevalarni terib olsa, g'oliblikni qo'lga kiritadi, ham ularni mazza qilib iste'mol qiladi, - deydi quvongancha 1-mavsumdan buyon maktab oromgohiga qatnayotgan Kamronbek Odilov.

Shu tariqa ajoyib musobaqalarga boy kun davom etib, o'quvchilar miriqib dam olishadigan bo'lishdi.

Poytaxtimizning 13-umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Kamalak» nomli yozgi sog'lomlashtirish oromgohida ana shu tariqa bolajonlarning har bir kunlari ularning qiziqish va istaklaridan kelib chiqib rejalashtirilgan ekan. Oromgoh rahbari Shoiri opa Nigmatova bolalarga ertaga

hayvonot bog'iga sayohat qilishlarini e'lon qilganida esa atrofda «ur-re» degan ovozlari eshitildi. Biz esa bolalarni suhbatga chorlab, to'garaklar haqida ham so'rar ekanmiz, Shahnoza qiz Mirsaidova quyidagilarni so'zlay ketdi:

- Menga, ayniqsa, «Yosh kitobxonlar» to'garagi juda yoqadi. Unda rahbarimiz Kamola opa Yusupova o'qigan kitoblarimiz bo'yicha turli bellashuvlar o'tkaza-

dilar. Respublika bolalar kutubxonasiga olib borib, sevimli shoir-yozuvchilarimiz bilan uchrashuvlar tashkil qilmoqdalar. Ana shunday uchrashuvlardan biri shoiri Umida Abduazimova bilan bo'lib o'tdi.

Omina Ismoilovaga esa har hafta oromgohda bolalarning o'zlari tayyorlaydigan qo'g'irchoq teatrida qatnashish zavq bag'ishlar ekan.

Shuning uchun bo'lsa ke-



rak, mazkur maskanga jon dildan qatnayotgan bolajonlarning soni yuztadan oshib ketgan. Ularning maroqli

hordiqdari yangi o'quv yilida kuch-quvvat bag'ishlasa, ajab emas.

S. QODIROVA

## HAPPY GRAMMAR

### Lesson 29

Arrive + In - yetib kelmoq

She arrives in Paris

Arrive+ at - (kichik joylar, stansiya, mehmonxona, futbol matchlari, tadbirlar haqida gap ketganda)  
She arrive at school.

Home so'zi hech qachon predlog olmaydi. Go home, come home, arrive home

(istisno: To be at home)



## COOKER MUBINA

One day Mubina wanted to bake a cake. She bought some cheap butter to bake it. But something was wrong with the butter. «This butter is bitter», said Mubina. She tasted the butter. «If I put in my cake it will make the bitter. But if I put a bit of better butter that would make my batter better». So, she went off to buy a better butter than her bitter butter. She mixed a bit of better butter into her cake batter. She tasted the batter and was happy that the batter was not bitter. She adopted the best way to solve the problem. Because there will be always one.

**Moral:** If you have a problem, always think of the best way to solve it.



## COMPLETE THE PAST TENSE AND PAST PARTICIPLE



| Infinitive | Past tense | Past participle |
|------------|------------|-----------------|
| Go         |            |                 |
| Get        |            |                 |
| Look       |            |                 |
| Arrive     |            |                 |
| Was        |            |                 |
| Cut        |            |                 |
| Buy        |            |                 |
| Forget     |            |                 |

Ma'mura G'ULOMOVA ing.

## HOW MANY SUMMER WORDS CAN YOU FIND?



|   |   |   |   |   |   |   |   |   |   |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| I | C | E | C | R | E | A | M | Q | W |
| F | R | A | G | E | A | R | O | S | H |
| H | E | R | Y | K | R | E | L | A | X |
| O | A | L | R | Y | D | U | I | S | I |
| T | M | U | N | G | L | A | S | E | S |
| B | S | L | O | L | P | F | W | A | U |
| M | W | O | L | A | K | E | I | E | N |
| S | I | E | T | S | U | M | M | R | R |
| Y | M | T | D | E | W | E | F | R | T |
| Q | H | F | L | S | K | V | N | O | S |

Ruxsora SAFAROVA,  
the pupil of school № 326, in Olmazor district

## WORD GAME

Match the sentence beginnings on the left with the correct endings on the right.



I lost my bag  
I dropped my radio on the floor  
I spilt my coffee  
I missed the bus  
I left  
I burn myself

when I cook a cake  
and had to wait ages for another  
and it has stained the carpet  
and all my money  
and now it doesn't work properly  
and all my books on the taxi

## Check your knowledge

- The suffix «-full» means ...  
a) none; b) both; c) full of; d) without.
- The suffix «-less» means...  
a) full of; b) without; c) both; d) none.
- Which of these adjectives describes good action  
a) friendly cleaver, rude, lazy;  
b) hard - working, unkind, polite, true;  
c) industrious, honest, silly, boastful;  
d) clever, brave, polite, hard-work-
- Keep it in ... and surprise them.  
a) the news; b) fear; c) a secret; d) quite.
- The sky was ...and bright blue, spring was in the air.  
a) endless; b) colorful; c) cloudless; d) helpless.
- Find the one with the most general meaning...  
a) galaxy; b) stars; c) cosmos; d) moon.

Dinora ABDULLAJONOVA

## YURT KORIGA YARAYLIK, TENGDOSHI!

Noming aytсам shu fayzli kunlar,  
Ko'z oldimga keladi gullar.  
Yuragimda uyg'onib bahor,  
Yaraladi eng go'zal ash'or.

Ko'nglim topib go'yo halovat,  
Qalbni quchar ajib harorat.  
Ko'zlarda nur, dillarda surur,  
Bugun xalqim dunyoga mashhur.

Bizga ustoz qancha daholar,  
Buyuk Temur, Ibn Sinolar.  
Biz ham bo'lib munosib izdosh,  
Yurt koriga yaraylik, tengdoshi!

**G'ulomqodir O'LMASOV,**  
Farg'ona viloyati, Toshloq  
tumanidagi 19-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## AZIZIM VATAN



Mo'tabardir,  
ulug' tuprog'ing,  
Aslo yo'qdir  
sendayin maskan.  
Baxtga to'la  
liq quchog'ing,  
Muqaddassan,  
azizim Vatan!

Samoda nur taratar quyosh,  
Tuprog'i zar, sajdagohimsan.  
Qora kunga berolding bardosh,  
Muqaddassan, azizim Vatan!

Mening yurtim go'zal, betakror,  
Mehribonim, aziz onamsan.  
Qutlug' so'zni aytaman takror,  
Muqaddassan, azizim Vatan!

**Arofatbonu MULLAJONOVA,**  
Andijon viloyati, Baliqchi  
tumanidagi 2-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## O'ZBEKISTON

Vatanimning bir hovuch  
tuprog'i aziz,  
Qadamin gullatgan  
bobolar aziz.  
Vatan so'zi asli  
naqadar laziz,  
Ey mening obod yurt —  
O'zbekistonim!

**Dildora AHMADOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Denov  
tumanidagi 13-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

## SIZLAR DOIM SERGAKSIZ

Siz — Vatan posbonlari,  
Adolat qalqlonlari.  
Siz tufayli elim tinch,  
O'zbekning qo'rg'onlari.

Buyuklarning shahdi bor,  
Sohibqiron ahdi bor.  
Dilingiz, tilingizda,  
Doim Vatan madhi bor.

Sizlar doim sergaksiz,  
Vatan uchun keraksiz.

**Barnoxon RO'ZIYEVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 28-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi

Bu dunyoda Vatanchalik muqaddas joy bo'lmaydi. Uning har bir qarichini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash biz insonlarning yuksak burchimizdir. Vatanni birovga berishga yoki poymol qilishga hech kimning haqqi yo'q. O'tkir publitsist va hozirjavob yozuvchi Murod Tillayev zukkolik va topqirlik bilan askarlar hayotini chuqur o'rganib, ushbu asarini o'quvchilar hukmiga havola etmoqda.

Armiya hayotining o'zi nihoyatda qiziq jarayon. Uning ichiga qancha kirib borsangiz, bir-biridan ajoyib va g'aroyib voqealarga shunchalik guvoh bo'lasiz. Buni chin qalbdan his etgan yozuvchi katta mahorat bilan ushbu mavzuga qo'l urib, chiroyli asar yaratibdi. Chunki harbiylar hayotini yaxshi va chuqur bilmasdan turib, bunday asar yozish juda mushkul ishdir. Buni katta iqtidor egasi Murod Tillayev uddalay olgan.

Shuni aytish kerakki, asar sodda va ravon tilda, ya'ni o'quvchilarga tushunarli uslubda yozilgan. Uni o'qib turib beixtiyor armiyada xizmat qilgan paytlarim yodimga tushib ketdi. U davrdagi armiya bilan hozirgisi orasida yer bilan osmoncha farq bor. Ozod va obod yurtda xizmat qilayotgan hozirgi yoshlarimiz armiyasi bu jonajon Mustaqil Vatanimizning armiyasidir. Mustaqillik davridagi harbiy texnikalar deysizmi yoki askarlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar deysizmi, hamma-hammasi boshqacha. Bu armiyaga har qancha havas qilsang, bundan qancha g'ururlansang kamlik qiladi.

Yozuvchi o'z asarida Mustaqil Vatan armiyasining barcha jihatlarini ustalik bilan mohirona ko'rsatib berishga erishgan. Menimcha, muallifning muvaffaqiyati ana shunda bo'lsa kerak.

**Iqboljon MIRZAALIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zosi,  
Respublika Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik Kengashi raisi

# TEMURBEKLAR MAKTABI TURKUMIDAN

## AZM-U QAROR

Ergash otasining dafn marosimlaridan so'ng maktabga o'tanarkan, «Sinfdo'shlarim meni qanday kutib olarkin?» degan o'y xayolidan o'tdi. Nazarida, hammaning unga rahmi keladiganday tuyuldi. Bunday munosabat uning yarasini yangilashi aniq edi. Shuning uchun yuragi po'killab maktab hovlisiga kirib bordi. Yo'lakda negadir yuqoriroq sinf o'quvchilari ham unga yo'l berishdi.

Sinfga kirganda, shovqin solib turgan bolalar birdan jimib qolishdi. Hammaning nigohi unda edi-yu, lekin hech biri so'z qotishga botinolmasdi. Faqat partadoshi Xurshid uni quchoqlab: «Xafa bo'lma, jo'ra!» deb pichirladi. Qo'ng'iroq chalinishi bilan xuddi eshik oldida shuni kutib turgandek, sinfga tarix fani o'qituvchisi Hotamov kirib keldi. U hamma bilan umumiy salomlashgach, Ergashning oldiga kelib:

— O'g'lim, bir boshga bir o'lim hamisha bor. Sening otang qahramonlarcha o'lim topdi. U mana shu sinfdoshlaringga o'xshagan minglab, millionlab yoshlarning baxti, oilalarimizning tinchlik-xotirjamligi deb aziz jonini qurbon qildi. O'sha qattollar olib o'tmoqchi bo'lgan giyohvandlik moddalari giyohfurlashlarning qo'lga tushsa, bilasanmi, yuzlab insonlarning yostig'i qurirdi, qanchalab mayib-majruh bolalar tug'ilardi, necha-necha oilalar buzilardi. Sening otang haqiqiy qahramon. Shuning uchun boshingni baland ko'tarib yur. Xalqimiz, davlatimiz sizlarni hech qachon yolg'izlatib qo'ymaydi. Bardam bo'l, o'g'lim, biz doimo yoningizdamiz, — deb uning boshini silab qo'ydi.

Shunda Ergash endi unga hamma havas bilan qarayotganini sezdi. Bundan faxrlanish barobarida ichidan, «Baribir dadam tirik bo'lganlarida, yaxshi edi», degan o'y kechdi. Dars oxirida Hotamov uyga vazifa bergach, Ergashga qarab:

— Uyga qaytayotganingda, menga uchrab ket, maslahatli gap bor, — dedi.

Hamma «yalt» etib Ergashga qaradi. Shu kuni to darslar tugagunicha, «Hotamov ustozning menda nima gapi bor ekan?» deb Ergashning ichi qizib yurdi.

Shuning uchun boshga o'qituvchilarning gaplari uncha qulog'iga kirmadi. Oxirgi darsdan keyin o'qituvchilar xonasi tomon oshiqdi. Eshikni ochib, ichkariga mo'ralashga yuragi betlamay turganida, Hotamovning o'zi kelib qoldi.

— Meni kutib turganmiding? Yur, holiroq joyda bafurja gaplashib olamiz, — deb uni maktab bog'i tomon boshladi. Bog'da ulardan boshqa hech kim yo'q edi. Qiyyos gullagan olcha daraxti ostidagi o'rindiqqa borib

o'tirishdi. Hotamov avvaliga gapni nimadan boshlashni bilmay turdi. So'ng, Ergashning yelkasiga qo'lini qo'yib, yuziga tikilib:

— O'g'lim, endi oilada yolg'iz erkak o'zingsan. Bobong ham qarib qolgan. Har qancha yordam bergani bilan amakingning o'z oilasi bor. Shuning uchun hozirdan kelajakda kim bo'lishing, qaysi kasbning etagini tutishing haqida bir o'ylab ko'rishing kerak. Dadang ham onangni, singlingni senga ishonib, topshirib ketgan bo'lsa kerak.

O'qituvchisining so'nggi gapi Ergashga xuddi elektr toki urganday qattiq ta'sir qildi. Qulog'i ostida otasining oxirgi ko'rishganida, xayrlashayotib aytgan so'nggi so'zlari jaranglaganday bo'ldi: «Onangni senga ishonib topshirdim. Men bu yerdaligimda uyimizdagi yagona erkaksan, tushundingmi?» Shu topda otasining o'sha so'zlari o'limi oldidagi so'nggi vasiyati ekanligini Ergash endi anglab yetdi.

O'quvchisini xayol olib qochganini sezgan Hotamov uning holatini boshqacha tushunib, dalda berishga tushdi:

— Sen butunlay yolg'iz qolar ekanmiz, deb tashvishga tushma. Davlatimiz ham, dadangning kasbdoshlari ham sizlarni yolg'izlatib qo'ymaydi. To oyoqqa turib olguningcha moddiy jihatdan hech ham qiyinchilik ko'rmayisizlar. Men kelajakni o'ylab gapirayotuvdim-da.

Ergash xayolini bir joyga yig'ib olib:

«Xo'sh, kelajakda nima qilishim kerak?» deganday o'qituvchisiga tikildi. Hotamov gapning indallosiga ko'chdi.

— O'tgan yildan boshlab har bir viloyatda Ichki ishlar vazirligining bittadan akademik litseyi tashkil etildi. Kelasi yili sen 9-sinfni tugatasan. Ungacha tayyorgarlik ko'rsang, albatta, litseyga kira olasan. Balki sendaylar uchun imtiyoz ham bordir. Uni bitirgach, vazirlikning Akademiyasiga harakat qil. O'shanda ham akademik litseyini bitirganing uchun ham dadang xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgani uchun imtiyozga ega bo'lasan. Ishini davom ettirayotganingdan dadangning ruhi ham shod bo'ladi.

Ergashga bu maslahat judayam ma'qul tushdi. U bundan negadir quvonib ketdi.

— Bugunoq onamga bu fikrlarni aytaman, — dedi u shoshilib.

Hotamov o'quvchisiga taklifi ma'qul bo'lganidan xursand bo'lib, ilk bor kulimsiradi. Ergashning yelkasidan qo'lini olmay dedi:

— Sen shoshma. Avval o'zing yaxshilab o'ylab ko'r. Sen o'zi bu kasbni yaxshi ko'rasanmi, eplay olasanmi? Bundan tashqari, hozir otangning kasbidan gap ochsang, onangning yarasini yangilaysan. Oradan biroz vaqt o'tsin.

(Davomi bor)

Biz doim hazakatda,  
Chiniqamiz, quvnaymiz.  
Tuzli xil to'g'arakda,  
O'zganamiz, kuylaymiz.

# MAROQLI TA'TIL ZAVOI

**Bu «Oftoboy» nomli sport-sog'lomlashtirish maydonchasiga qatnayotgan bolajonlarning shiori. Ular poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'quvchiligidir.**

Ta'tilda ham maktabidan uzoqlashishni istamay, ular uchun tashkil etilgan ko'rkamgina maydonchada vaqtini chog' o'tkazayotgan ana shu tengdoshlaringiz alohida bir kunni mutolaa-yu «Tong yulduzi» gazetasi bilan o'rtoqlashishga bag'ishlashibdi. Biz ham bajon-u dil bu maskan sari oshiqib, ularning bir kunlarini kuzatib, «Ha, maroqli dam olish mana shunday bo'ladi», deya bir olam taassurot oldik. Ishonmasangiz, biz hikoya qilamiz, siz ham guvohi bo'ling!




Tongda maydonchaga yig'ilgan bolajonlar, avvalo, sho'x kuy-qo'shiq ohangida badantarbiya bilan shug'ullanishar ekan. So'ng, o'z qiziqishlariga ko'ra turli to'garak xonalariga tarqalib, sevimli mashg'ulotlari bilan mashg'ul bo'lish odatlariga aylangan. Uvaysiy Danaboyeva rahbarligidagi «Ranglar jilosi» to'garagi deysizmi, Nasiba Hotamova boshchiligidagi «Ingliz tili», ustoz Qunduz Ismoilovanning «Qiziqarli matematika»si, Mohira Atajonova olib borayotgan «Mohir qo'llar» to'garagimi, barchasi o'quvchilar bilan gavjum. Kitobsevarlar esa «Yosh kitobxon»ga a'zo bo'lib, Umida opa Sultonovanning tavsiyalariga ko'ra mutolaa bilan bandlar. Chorshanba kunlari bolajonlar mazza qilib suv havzasida cho'milib, dam oladilar. Maydonchada futbol-u turli sport musobaqalariga qiziqmaydigan o'g'il bolani topmaysiz. Maydonchadagi ana shunday ishlarga bosh bo'layotgan maktab direktori Sabohat Sultonova va oromgoh rahbari Gulasal Mardonova bolalarning qiziqishlari-yu takliflarini o'rganishdan charchamaydi. Saodat O'rinboyeva, Otabek Abduqahhorov, Mumtozabonu Faxritdinova, Javohir Faxritdinov, Ali Usponov, Jasmina Abdumuminova kabi faol o'quvchilarning gazeta bilan do'stlashish taklifi ham shunday tug'ilgan ekan-da! Xullas, ta'til davomida ko'p sarguzasht-u ajoyib hordiqni mo'ljallagan bu do'stlaringiz barchasiga ulgurish harakatidalar.

S. SHAVKAT qizi

**«Bolajonlar, bugungi mashg'ulotimizda «Kim epchil»ligini sinovdan o'tkazamiz. Endi ikki guruhga bo'linamiz-da, musobaqani boshlaymiz!»**

Murabbiyning bu so'zlaridan so'ng o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, estafetani boshlab yuborishdi.

Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazining to'garak a'zolari o'rtasidagi bellashuv ana shunday



boshlandi. «Yoz – o'tmoqda soz!», «Sog'lom bo'lay desangiz» mavzusida o'tkazilayotgan tadbirlar bu yerga qatnayotgan o'quvchilarning har kuniga mazmun bag'ishlamoqda. Markaz direktori bilan bog'langanimizda, bolalarning shodon kulgulariga guvoh bo'ldik.

– Ayni damda ham ko'ngilochar tadbirlarimizdan biri o'tkazilmoqda, – deydi Jahongir aka. – Yoz mavsumida bolalarimizning soni ortgani sabab to'garaklarimiz soni 30 tani, guruhlar 130 tani tashkil qiladi. Badiiy ijodiyot, texnik ijodiyot, o'lkashunoslik va ekologiya, chet tili yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan to'garaklarga 1400 nafar o'quvchilar qatnamoqda. Ayni damda hech bir yo'nalishni texnikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan to'garak xonalarimizda boshlang'ich texnik modellashtirish to'garagiga 140 nafar, kompyuter dizayni va grafikasi 40 nafar, kompyuter servis xizmati to'garagiga 60 nafar o'quvchilar qatnamoqda.

Sport yo'nalishida faoliyat yuritayotgan shaxmat-shashka to'garaklari ham bolajonlar bilan gavjum.

To'garak a'zolarining ijodiy izlanishlarini jonlantirish va bolalar turizmini rivojlantirish maqsadida turli tarixiy qadamjolariga, muzey hamda teatrlarga sayohatlar uyushtirilishi an'anaga aylangan. Mazmunli sayohatdan olgan taassurotlari bir olam bo'lgan o'quvchilar ijodga sho'ng'ib, yangi g'oyalar ustida izlanishlari tabiiy.

O. TURSUNBOYEVA



## ASRORJON TOJIKISTONDA BO'LDI

**Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 9-sinfini tamomlagan Asrorjon O'rinov joriy yilda Tojikistonning Istiqlol shahrida o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha Osiyo chempionatida 46 kg vaznli o'rtasida tengsiz ekanligini isbotlab, oltin medalni qo'lga kiritdi.**

– Hozirda o'quvchilarim ko'zida yaratilayotgan imkoniyatlardan cheksiz minnatdorlik nashidasini ko'raman. Shuning uchunmi, ular o'zlariga qattiq ishonib oldinga, faqat oldinga intilishmoqda. Bizning vazifamiz har bir o'smirmni o'zi sevgan sport turi bilan shug'ullanishiga erishish. Asrorjonning yutug'ida ham sport turini tanlashda adashmaganligini sezamiz, – deydi murabbiy Ahror Hamidov. – Uning harakat tezligini ko'rib, kelgusida yirik musobaqalarda yuksak cho'qqilarni zabt etishiga ishonamiz.

SH. MUSAYEV

# BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

## «MA'RIFATPARVAR SHOIR HIKMATI» TOPSHIRIQLI LINVORDI

Linovrdni hal etgandan so'ng, chizmaning ostki qismidagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirish orqali topshiriqlari hal eting. Bunda ulardan tavalludi kuniga 140 yil to'lgan ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniyning «Maktab» she'rida keltirilgan to'rt misra hikmatni bilib olasiz.

| Mevazor, gulzor maskan |   | Ulug' zot, padar                 |   | G'arbiy Afrikadagi davlat |   | Tokni ko'tarib turuvchi moslama |   |   | Musiqa san'ati asari  |    | Farg'ona viloyatidagi shahar |    |             | Foyda, daromad |                               | Tub, ostki qism |                              | ... Kapur (atoqli kinoaktyor) |    | Oyoq tashlab qilingan harakat |    |  | ..or, kul.. |  |
|------------------------|---|----------------------------------|---|---------------------------|---|---------------------------------|---|---|-----------------------|----|------------------------------|----|-------------|----------------|-------------------------------|-----------------|------------------------------|-------------------------------|----|-------------------------------|----|--|-------------|--|
| 1                      | 2 | 3                                | 4 | 5                         | 6 | 7                               | 8 | 9 | 10                    | 11 | 12                           | 13 | 14          | 15             | 16                            | 17              | 18                           | 19                            | 20 | 21                            | 22 |  |             |  |
| Xorazm viloyati tumani |   | Matematik hisobning har bir turi |   | Hid, bo'y                 |   | Danakli ho'l meva               |   |   | Tush ko'rildigan payt |    | Turkiya-dagi ko'l            |    | Yuz, chehra |                | Hindiston-dagi tarixiy shahar |                 | Beda, pichan qirg'ish asbobi |                               |    | Oyning yana bir nomi          |    |  |             |  |

\*\*\*\*\* **Abdulla Avloniy hikmati** \*\*\*\*\*

|   |    |    |    |    |   |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |    |   |
|---|----|----|----|----|---|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|---|
| * | *  | 4  | 14 | 9  | 3 | 14 | 1  | *  | 12 | 10 | 20 | -  | 19 | 21 | 8  | 12 | 5  | 14 | 4  | 21 | 15 | ,  | *  | * |
| * | *  | 4  | 14 | 9  | 3 | 14 | 1  | *  | 22 | 14 | 10 | 21 | 3  | 20 | *  | 18 | 21 | 13 | 20 | 19 | 21 | 15 | ,  | * |
| 4 | 14 | 9  | 3  | 14 | 1 | *  | 6  | 14 | 2  | 21 | 10 | 20 | *  | 11 | 14 | 5  | 1  | 12 | *  | 18 | 21 | 15 | ,  | * |
| 2 | 14 | 10 | 8  | 14 | 3 | *  | 11 | 20 | 5  | 12 | 1  | *  | 7  | 11 | 20 | 15 | 17 | ,  | 7  | 2  | 5  | 21 | 15 | ! |

Tuzuvchi: Foziljon ORIOV

**Toplashmoq**

Yigitlar sovg'a bersa,  
Qizlar chiroy ochadi.  
O'rtada mehr bo'lib,  
Xafaqonlik qochadi.

Qat-qat ochilgan beshak,  
Hididan sog'lom yurak.  
Rangi to'q qizil axir,  
Bilasanmi, Muborak?!

Sumbulxonim RUSTAMBOYEVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
To'rtko'l tumanidagi 23-umumta'lim maktabi o'quvchisi

**MEVA SHARBATI – JONNING ROHATI**

*Pazanda qizga!*


Yozda barcha mevalar g'arq pishib yetiladi. Ba'zida ular ko'payib ketganidan nima qilishni ham bilmay qolasiz. Jazirama kunlarda mevali kompotlar juda asqotadi. Bugun sizlarga turli mevalardan kompot tayyorlashni o'rgatamiz.

**Buning uchun bizga:**  
yarim kilogramm istalgan ho'l meva (har xil bo'lsa ham bo'ladi), 300 gramm shakar kerak bo'ladi.

Ish avvalida mevalarni tozalab yuvamiz. Ularni kastyulkaga solib, sovuq suv solamiz. Suvimiz mevalarni ko'mib turishi kerakligi yodingizdan ko'tarilmasin. Keyin uni 15–20 daqiqa qaynagach, shakar solib, aralashtirib, olovni o'chiramiz. Kompot sovg'ach, bankalarga quyib, muzlatgichga qo'yamiz.


**Yoqimli ishtaha!**

**Endi aziz kichik bekalar, mevalarning inson salomatligi uchun qanchalik foyda ekanligi haqida bilib olsangiz, foydadan xoli bo'lmaydi.**



**Gilos:** S vitaminiga boy. Biroz nordonligini aytmasa, ishtaha ochishda keng qo'llaniladi.

**O'rik:** yurak quvvatini oshiradi, insonda modda almashinuvini yaxshilab, tetik qilish xususiyatiga ega.



**Malina:** bu rezavor meva ham S vitaminiga boy. Undan tayyorlangan murabbo qish kunlarida shamollab qolsangiz, yordamga keladi.

**Olxo'ri:** mushaklardagi chidamlilikni oshiradi. Inson organizmini tetiklashtirib, kasallikka qarshi kurashishni kuchaytiradi.



**NARGIZA** tayyorladi

**Tong yulduzi**

**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Qahramon QURONBOYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Laziz TANGRIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sayyora QODIROVA

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilmiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: [info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
Adadi – 28712  
Buyurtma – V 1999

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08